

## **Mundarija**

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomalar.
- II. Tanlovning texnik qismi.
- III. Tanlovning narx qismi.
- IV. Shartnoma loyixasi.

## I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomalar

1	<b>Umumiy qoidalar</b>	<p>1.1 Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprel kungi O'RQ-684-sonli «Davlat xaridlarini to'g'risida»gi Qonuni (keyingi o'rirlarda «Qonun»)ga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi №PQ-3550-sonli «Loyixaoldi, loyixa, tanlov xujjatlari va shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (keyingi o'rirlarda «Qaror»)ga, shuningdek, Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3016) (keyingi o'rirlarda «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2 Tanlov mavzusi: <b>Damas va Labo avtomobilining 96915458, 96915525, 96915526 va 96915527 shtamplangan raqamlari butlovchi qismlarni daval asosida ishlab chiqarish.</b></p> <p>1.3 Tanlovnинг quyи va yuqori qiymatlari va valyutalari tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.</p> <p>1.4 Sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar va ishlар) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.</p> <p>1.5 Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolarining bevosita ishtirokida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin</p>
2	<b>Tanlov tashkil qiluvchilar.</b>	<p>2.1 Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» AJ (keyingi o'rirlarda «Buyurtmachi») hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko'chasi 1. Buyurtmachining rekvizitlari: MFO 01169, STIR 200244767, x/r 2021 4000 9005 3230 5053 AT «Asaka bank» Hazorasp filiali</p> <p>2.2 Buyurtmachining aloqa bog'lovchi vakili: Global xarid qilish boshqarmasining HVAC, shassi va uzellar bo'linmasi muxandis-texnologи. email: Bobur.Qutlimuratov@uzautomotors.com tel: +998781502200 #2 4881</p> <p>2.3 Tanlov komissiyasining ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali Mahalliylashtirish bo'limi (keyingi o'rirlarda «Ishchi organ») hisoblanadi.</p> <p>2.4 Shartnoma egasi: «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali</p> <p>2.5 Tanlov xujjatlari qonunga muvofiq tashkil qilingan besh kishidan iborat kompaniya komissiyasi tomonidan baxolanadi.</p>
3	<b>Tanlov ishtirokchilari</b>	<p>3.1 Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishlari mumkin, Ushbu tanlov</p>

			xujjatlarining 4.2 bandida ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno.
4	<b>Tanlov o'tkazish tartibi</b>	4.1	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar: a) takliflarni qonunchilik talablari va muddatlariga, hamda tanlov xujjatlariga muvofiq ravishda yuborishlari kerak.
		4.2	Tanlovda ishtirok etishga quyidagi ishtirokchilarga ruxsat berilmaydi: <ul style="list-style-type: none"><li>- qayta tashkil bo'lismish, tugatilish yoki inqirozlik bosqichida turgan;</li><li>- buyurtmachi bilan sudlashuv yoki arbitraj muxokamasida bo'lган;</li><li>- Layoqatsiz (insofsiz) ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lган;</li><li>- soliq va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha qarzdorligi bo'lган;</li></ul>
			<ul style="list-style-type: none"><li>- Imtiyozli soliq tizimi bilan ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operasiyalar o'tkazishda oshkoraliqka va ma'lumot berishga yo'l qo'ymaydigan davlatlardagi yoki xududlar (offshore xududlar) dagi banklarda xisob raqamlari bo'lган yoki ro'yxatdan o'tgan;</li></ul>
		4.3	Buyurtmachi quyidagi holatlarda tanlov ishtirokchisini xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatish xuquqiga ega: <ul style="list-style-type: none"><li>- tanlov ishtirokchisi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalga hozirgi yoki sobiq mansabdar shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalga boshqa qimmatbaho buyumni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;</li><li>- tanlov ishtirokchisi O'zR qonunchiligini buzgan holda boshqa raqobatchilardan adolatsiz ustunlikka ega bo'lsa yoki qonunchilikka zid ravishda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda</li></ul>
5	<b>Tanlov tili, o'lchov birligi</b>	5.1	Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasida amalga oshirilayotgan tanlov taklifi va unga bog'liq yozishmalar (xujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Agar tanlov taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimasi ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalilanilganda, tanlov matnida tafovut bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun qo'yiladi. Texnik xujjatlarni ingliz tilida taqdim qilishga ruxsat etiladi.

			Tanlov takliflarida umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanilishi kerak.
<b>6</b>	<b>Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi</b>	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlovda ishtirok etuvchilar e'londa ko'rsatilgan tanlov o'tkaziladigan xarid platformasiga takliflarini , raqamlangan, muxrlangan va ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlangan xolda xarid platformasiga joylashtirishi talab etiladi.
		6.2	<p>Tanlov ishtirokchisi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- taqdim qilinayotgan ma'lumot va xujjatlarning xaqiqiyligi va ishonchlilikiga javobgar;</li> <li>- faqat bitta taklif berish xuquqiga ega;</li> <li>- takliflar taqdim qilish muddati tugagunga qadar taqdim qilgan taklifini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish xuquqiga ega.</li> </ul>
		6.3	<p>Tanlov taklifi ikki qismdan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- texnik qism buyurtmachining texnik talablariga mos kelishi lozim va taklif qilinayotgan tovar xaqida batafsil ma'lumotni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak;</li> <li>- narx qismi tanlov shartlariga mos kelishi kerak va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shu jumladan, maxsulot nomi, bir dona uchun narx, barcha soliqlar qo'shilgandagi umumiy narx, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va x.k.) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak</li> </ul>
		6.4	Tanlov ishtirokchisining narx taklifi va narxlar jadvali alovida tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak, shuningdek, elektron tashuvchilarda original formatda (Microsoft Office) taqdim etishga ruxsat etiladi. Narx shakkantirishdagi formulalarni kuzatish imkon bo'lishi kerak.
		6.5	Tanlov taklifilarini xarid platformasida ko'rsatilgan lot ostiga taqdim etilishi kerak.
		6.6	<p><b>Tanlov taklifida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'lumotlar portalidagi lot raqami;</li> <li>- tanlov mavzusi;</li> <li>- ishtirokchining nomi;</li> <li>- buyurtmachining nomi va manzili;</li> <li>- ishtirokchining kontakt ma'lumotlari (elektron pochta manzili, vakolatli vakilning telefon raqami);</li> </ul>
		6.7	- korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda ariza berish talabi.
		6.8	Ishchi organ mazkur yo'rqnoma talablariga mos ravishda ro'yxatga olingan tanlov takliflarining yaxlitligi va saqlanganligiga javobgarlikni zimmasiga oladi.

		6.9	Tanlov takliflari <a href="http://xarid.uzex.uz">http://xarid.uzex.uz</a> portalida e'lon berilgan kundan boshlab 12 (o'n ikki) kun ichida (soat 17:00) gacha xarid platformasiga joylashtirishi shart.
		6.10	Tanlov takliflari taqdim qilingan takliflarni muxokama qilish komissiya a'zolari bilan birgalikda o'tkaziladi.
		6.11	Tanlov taklifi amal qilish muddati tanlov taklifi taqdim qilishning so'nggi kunidan boshlab kamida 30 (o'ttiz) kunni tashkil qilishi kerak.
7	<b>Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uyaaytirish</b>	7.1	Buyurtmachi zarur xollarda taklif taqdim qilish muddatini uzaytirishi mumkin, shuningdek, tanlov ishtirokchilariga ularning takliflari amal qilish muddatlarini tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.
		7.2	Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish xaqidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va zarur xollarda buyurtmachi saytida yoki boshqa OAV da e'lon qilinadi.
8	<b>Tanlov xujjalariга o'zgartirishlar kiritish</b>	8.1	Zarur xollarda buyurtmachi tanlov xujjalariга o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli. Tanlov xujjalariга o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror taklif taqdim qilish muddatidan kamida 3 (uch) kun oldin qabul qilinishi mumkin. Tanlov xujjalariга o'zgartirish kiritish jarayonida maxsulot (ish, xizmat ko'rsatish) yoki uning xarakteristikasi o'zgarishiga yo'1 qo'yilmaydi. Taklif taqdim qilish muddati tugaguncha tanlov xujjalariга o'zgartirish kiritilgan xollarda, tanlov muddati o'zgartirish kiritilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kundan kam bo'limgan muddatga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtida agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.
9	<b>Tanlov takliflari ko'rish jarayoni, ularni baxolash tartibi va mezonlari</b>	9.1	E'londa tanlov o'tkazish vaqtida ko'rsatilgan vaqtida tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim qilingan tanlov takliflarini baxolash uchun tanlov takliflarni ochadi.
		9.2	Tanlov ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqish va baxolash tanlov komissiyasi tomonidan tanlov takliflari taqdim qilish muddati tugagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida o'tkaziladi.

		9.3	Takliflarni ochishda barcha xujjatlarning mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshiriladi. Mos xujjatlar bo'lmanan xolda tanlov komissiyasi mazkur taklifni ko'rib chiqishga va baxolashga qo'ymaslik xuquqiga ega.
	 Malaka xujjatlari.docx	9.4 9.5	<p>Tanlov komissiyasi tanlov xujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida g'olibni aniqlash uchun rad qilinmagan takliflarni baxolashni amalga oshiradi.</p> <p>Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinishi zarur bo'lgan saralangan xujjatlar shakllari va ro'yxati tanlov xujjatlarining 1-ilovasida keltirilgan.</p>
		9.6	Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan xujjatlardagi ma'lumotning ishonchsz ekanligi aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlatishga xaqli.
	 Baholash mezonlari.docx	9.7	Tanlov takliflarini baxolash va g'olibni aniqlash tanlov xujjatlari(2-ilovasi)da bayon qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi.
		9.8	Agar taklif Qonun, qaror, nizom talablariga va tanlov xujjatlariga mos kelsa, tegishlicha rasmiylashtirilgan deb tan olinadi.
		9.9	Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan tanlov xujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
		9.10	Tanlov takliflarini baxolash jarayonida ishchi organ tanlov ishtirokchilaridan ularning takliflari yuzasidan izox talab qilishi mumkin. Ushbu jarayon rasmiy ravishda, tanlov tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda yozma shaklda amalga oshiriladi. Izox jarayonida taklif moxiyati, shuningdek, narx bo'yicha o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi.
		9.11	Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov takliflari ochilish sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi.
		9.12	Tanlov xujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomalar ijrosining eng yaxshi shart-sharoitlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb tan olinadi.
		9.13	Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lganda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisini boxabar etgan xolda tanlov

			taklifini rad etish yoki ularni ko'rib chiqish uchun boshqa shartlar belgilashgaxaqlidir.
		9.14	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarining narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan amaldagi barcha turdag'i soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.15	Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
		9.16 9.17	Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi ishchi organning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va uning ko'chirmasi imzolangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi. Xarid tadbiri natijasi bo'yicha har bir alohida tovar (ish, xizmat ko'rsatish uchun) alohida g'olib aniqlanishi mumkin
		9.18	Xar qanday tanlov ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga tanlov natijalari bo'yicha izox taqdim qilishi xaqida so'rov yuborishga xaqli.
10	<b>Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish</b>	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar;</li> <li>- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtaida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy xattixarakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari</li> </ul>
		10.2	Shartnoma bo'yicha majburiyatlar (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
11	<b>Boshqa shartlar</b>	11.1	Agar tanlovda ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod maxsulotlari taklif qilinsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu maxsulotlar

			bo'yicha uchinchi tomon bildirgan fikr-muloxazani taqdim qilishni so'rashga xaqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan tanlov xaqida izox olish uchun ishchi organga murojaat qilish xuquqiga ega
		11.3	Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov e'lonida ko'rsatilgan shaklda tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirib berilishi to'g'risida so'rov yuborishga xaqli. Mazkur so'rov taklif taqdim qilish muddati tugashiga 3 (uch) kun qolganidan avval qabul qilingan bo'lsa taqdim qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida buyurtmachi belgilangan shaklda tanlov xujjatlari qoidalariga tushuntirishlar yuborishi shart. Tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirish uning moxiyatini o'zgartirmasligi kerak.
		11.4	Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin: <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki xech kim qatnashmasa;</li> <li>- takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi xamma takliflarni tanlov xujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan xolda rad etgan bo'lsa.</li> </ul>
		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lган taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtida tanlovnı bekor qilishga xaqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
12	<b>Shartnomा imzolash</b>	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra tanlov xujjatlari va ishtirokchi taqdim qilgan tanlov taklifi shartlari asosida ushbu ishtirokchi bilan shartnomा imzolanadi.
		12.2	Tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra g'olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi g'olib aniqlangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida tanlov komissiyasi xulosasi xaqida yozma ravishda ogoxlantiriladi. G'olib aniqlangan paytdan boshlab 10 (o'n) kun ichida buyurtmachi va g'olib shartnomা imzolashlari kerak.
		12.3	Tanlov g'olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnomা imzolashni rad etgan xolda shartnomা imzolash xuquqi zaxiradagi ishtirokchiga o'tadi. Bunday xolatda zaxiradagi ishtirokchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnomা imzolashi yoki shartnomা imzolashni rad etishi mumkin.

## TEXNIK QISM

**Labo avtomobilining 94584751/4661 raqamli butlovchi qismlarni ishlab chiqarish.**

### **Ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni, xajmi va xususiyati (talablari).**

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan Tanlov xujjalaringin texnik qismi, 1-ilovasida ko'rsatilgan "Texnik topshiriq" (keyingi o'rinda – TT deb yuritiladi) talablariga muvofiq amalga oshirilishi talab qilinadi.

Butlovchi qismlarni oylik ishlab chiqarilish xajmlari "UzAuto Motors" buyurtmasiga muvofiq o'zgarishi mumkin.

**Butlovchi qismlarni yetkazib berish muddati (yoki jadvali), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar.**

Yetkazib berish tartibi, 1-ilovada keltirilgan, qismlarni yetkazib berish EDI (Elektron ma'lumotlar almashuvi) tizimi va ASN (oldindan yetkazib berish xabarnomasi) tizimi buyicha, xisob-varaqa (schet-faktura) asosida amalga oshiriladi.


### **Ilova: Texnik topshiriq (TT)**



TT.docx

### **Texnik topshiriq (TT)**

Butlovchi qism nomi	96915458 – BRACKET SUNV 96915525 – BRACKET BRAKE 96915526 – BRACKET FRONT 96915527 – BRACKET HEAT
Texnik ko'rsatkichlari	<b>Material</b> SPCC=1.2 SPCC=1.4
Butlovchi qismga texnika-texnologik talablar	<b>Mahsulotni qabul qilish</b> Masulotni sifati bo'yicha qabul qilish buyurtmachining "Butlovchi qismlarni kiritish nazorati" standartiga asosan amalga oshiriladi. Mahsulotni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilish buyurtmachining korxonasida ta'minotchining vakili ishtirokida amalga oshiriladi. Yetkazib berilgan mahsulot miqdori buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan talabnomaga binoan, yozma yoki elektron shaklda kelishilgan shaklda berilgan hajmlarga mos kelishi lozim. <b>Mahsulot sifati</b> Ta'minotchi buyurtmachiga mahsulotni buyurtmachi tomonidan joriy etilgan me'yor va o'rnatilgann standart, mahsulotni sifatini, chizmalar talablari, me'yoriy xujjatlar, nazorat qilish usullari asosida yetkazib berilishiga kafolat beradi. Mahsulot materialini, tuzilishini yoki hujjalarni bir tomonlama o'zgartirilishga yo'l qo'yilmaydi. Buyurtmachi mahsulot sifatini va ta'minotchining ekologik sertifikati mavjudligini tekshirish huquqiga ega va zarur hollarda

	<p>bu tekshirish huquqi bevosita iste`molchiga ham berilishi mumkin.</p> <p><b>Sifat kafolati.</b></p> <p>Agar mahsulot kam yetkazib berilishi va sifat nomuvofiqligi, qadoqsiz va o`ramasiz yoki talab darajasida bo`lmagan qadoqda va o`ramada kelganligi, markasiz yoki talab darajada markalanmaganligi ta`minotchi vakili ishtirokida aniqlansa, ta`minotchi 3 (uch) ish kunida ushbu kamchiliklarni bartaraf etishi va yetishmayotgan miqdorini o`z mablag`lari xisobidan to`ldirilishi lozim, shuningdek buyurtmachidan yozma xabar(pochta, faks, electron pochta) qabul qilinganidan keyin yoki yetkazib berilgan sanadan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida tegishli idishga qadoqlash, markalash ishlarini bajarishi kerak.</p>
Butlovchi qismning ishlatalish joyi	Payvandlash sexida ishlataladi
Narx qismi	<p>Tanlov taklifida ko`rsatilgan narxlar eng past narxdan oshmasligi kerak va keyinchalik o`zgartirilishi mumkin emas.</p> <p>Taqdim qilingan narxlar O`zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so`mda va qo`shimcha qiymat solig`i (QQS) bilan ko`rsatilishi lozim.</p>
Fotosurat	
Chizmasi va umumiy talablar	Ilova qilinadi
Qo`shimcha talablar	<p><i>Tara va qadoqlash</i></p> <p>Butlovchi qismni yetkazib berishda shakli va hajmi ta`minotchi tomonidan ishlab chiqilgan va buyurtmachi bilan kelishilgan maxsus idishlar ishlataladi va buyurtmachi bilan kelishilgan talablarga ko`ra markalanishi lozim.</p> <p>Mahsulotni yetkazib berishda quyidagi ma'lumotlarni o`z ichiga olgan yorliq yopishtiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– avtomobil turi;</li> <li>– butlovchi qism nomi, raqami va soni;</li> <li>– ta`minotching kodi;</li> <li>– yetkazib berish joyi;</li> <li>– idish hajmi, qadoqlash sanasi, nazorat xolati va boshqalar.</li> </ul>

1	Chegaraviy narx (Predelnaya stoimost)	179 790 000 (Bir yuz yetmish to'qqiz million ettiyuz to'qson ming) 00 sum. QQS bilan
2	Moliyalashtirish manbai	O'z mablag'lari asosida
3	To'lov shartlari va to'lov tartibi	Shartnomaga ko'ra-taqqoslov dalolatnomasi hisoboti mayjud bolsa 10 bank kuni ichida, 15-sanadan keyin va har oyning
4	To'lov valyutasi	UZS – O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (Sum)
5	Yetkazib berish vaqtasi	Shartnoma imzolangandan keyin shartnoma muddati tugagunga qadar.
6	Maxsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish)	Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko'chasi 1.
7	Tanlov uchun takliflar taqdim etilishining amal qilish muddati	10 kun

Ilova №1: Tanlov hujjatlari uchun

### **Malakaviy hujjatlar RO'YHATI**

1. Komissiya raisi nomiga Tanlovda qatnashish uchun ariza (shakl №1)
2. Tanlov ishtirokchisining muxri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hujjatning nusxasi.
3. Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini, mijoz bilan sud yoki hakamlik holatida emasligini, shuningdek, ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha noto'g'ri bajarilgan majburiyatlarning yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati (2 -shakl).
4. Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (3 -shakl)

***shakl №1***

### **ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA**

*Nº:* \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasi**

## **ARIZA**

Tanlov hujjatlari (taklif qilinayotgan mahsulotlarning nomini ko'rsating) bilan tanishib chiqqandan so'ng, №\_\_\_\_\_ so'rovlarga javoblar (yozma so'rovlar va ularga javoblar berilgan taqdirda so'rovlar raqamlarini ko'rsating), biz buni tasdiqlaymiz. (Tanlov ishtirokchisining ismi), tanlov hujjatlariga muvofiq mahsulot yetkazib berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish maqsadida.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni yuboramiz:

1. \_\_\_\_\_ varaqda malaka hujjatlari (varaqlar bukletlar, kompakt disklar va boshqalarni taqdim qilgan taqdirda, sonini ko'rsating);
2. Tanlov taklifining texnik qismi;
3. Tanlov taklifining narx qismi.
4. Boshqa hujjatlar (agar boshqa hujjatlar taqdim etilsa, varaqlarning nomi va sonini ko'rsatish kerak).

Tanlov taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxsning F.I.O:

Aloqa telefoni / faks: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili \_\_\_\_\_

F.I.O rahbar yoki vakolatli shaxsning imzosi

Muhr o'rni

## **ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA**

*Nº:* \_\_\_\_\_  
*Sana:* \_\_\_\_\_

*Xarid komissiyasi*

### **KAFOLAT XATI**

Ushbu xat bilan kafolat beramiz korxonamizning \_\_\_\_\_ :  
*(korxona nomi)*

- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnoma shartlarini bajarilishi bo'yicha muammolar yo'qligi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emas;
- sudlanish yoki hakamlik holatida emas;
- shuningdek, kompaniyaning banki ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmagan;
- vijdonsiz ijrochilarining yagona reestrida ro'yxatga olinmagan.

*Imzo:*

- Korxona rahbari F.I.O. \_\_\_\_\_
- Bosh buxgalter F.I.O. \_\_\_\_\_
- Yurist F.I.O. \_\_\_\_\_

*Muhr o'rni*

**Shakl №2**

Tanlov ishtirokchisi haqida umumiylumot

<b>1</b>	Huquqiy shaklini ko'rsatuvchi yuridik shaxsning to'liq nomi	
<b>2</b>	Ro'yxatga o'linganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga oluvchi organning nomi)	
<b>3</b>	Yuridik manzili	
<b>4</b>	Aloqa telefoni, faks, e-mail	
<b>5</b>	To'liq bank tafsilotlari(rekvizit)	
<b>6</b>	Korxonaning asosiy faoliyati	

\_\_\_\_\_ (*vakolatli shaxs imzosi*)

\_\_\_\_\_ (*vakolatli shaxsning lavozimi va F.I.O.*)

**M.O':**

Sana: «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_

## Ilova №2 Tanlov hujjatlari uchun

Ishtirokchilarni malakaviy tanlash va takliflarni baholash tartibi va mezonlari.

Malakali tanlov (baholash) tanlovning texnik va tanlov qismlarini ko'rib chiqish boshlanishidan oldin xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Agar ishtirokchi tomonidan kerakli ma'lumotlar taqdim etilmasa, xarid komissiyasi uning tanlovda ishtirok etishiga ruxsat bermaydi.

### Baholash mezonlari

Nº	Mezonlar	Baholash	Izoh
1	Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarilishi	To'g'ri / noto'g'ri (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar noto'g'ri bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega
2	Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatidagi holati	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi.
3	Buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki hakamlik bosqichidagi ishtirokchining holati	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi.

### 1. Takliflarni texnik baholash.

Tanlov jadvalida ko'rsatilgan texnik baholash mezonlari asosida o'tkaziladi. Agar taklifni texnik baholash natijalariga ko'ra, Tanlov ishtirokchisi mezonlar bo'yicha "0" ball to'plagan bo'lsa, bu ishtirokchi xarid komissiyasi tomonidan tanlovda qatnashishdan diskvalifikatsiya qilinadi va uning taklifi boshqa ko'rib chiqilmaydi.

$$\text{Ballar} = (\text{Olingan ballar} / \text{Maksimal ballar}) * \text{Kategoriya ko'rsatgichi\%}$$

## Texnik baholash mezonlari

Nº	Mezonlar	Baholash	Izox
1	Presslar 60t....120t	Mos - 5 ball Mos kelmaydi - 0 ball	Ta'minotchi xisobidan Foto lavxa va kafolat xatiga asosan
2	<b>Ishlab chiqarish binosi</b>	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball	Ta'minotchi xisobidan
3	<b>Transport xarajatlari</b> <i>Ta'minotchi hisobidan</i>	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball	Ta'minotchi xisobidan
4	<b>Tayyor mahsulotni saqlash ombor xonasi</b> <i>Ta'minotchi xisobidan</i>	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball	Ta'minotchi xisobidan
5	<b>Gilotina qaychi Listni kesish uchun</b> <i>Ta'minotchi xisobidan</i>	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball	Ta'minotchi xisobidan
6	<b>Qoliplar xaqida</b> <i>Ta'minotchi xisobidan</i>	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball	Ta'minotchi xisobidan Foto lavxa va kafolat xatiga asosan